

# MAXFIYLIK SIYOSATI

(Oxirgi yangilanish sanasi: 2026-yil 24-yanvar)

## 1. Kirish

oilago.uz (keyingi o'rinlarda "Ilova" deb ataladi) – bu foydalanuvchilarga o'zlariga mos juft topish uchun vakansiyalar (profil/elon) joylashtirish, qidirish va chat orqali muloqot qilish imkonini beruvchi ijtimoiy-dating mobil ilovasi.

Biz shaxsiy ma'lumotlaringiz maxfiyligiga jiddiy yondashamiz va ularni faqat Ilova maqsadlari doirasida ishlatamiz. Ushbu Maxfiylik siyosati Ilovadan foydalanish paytida qanday ma'lumotlar yig'ilishi, ishlatilishi, saqlanishi va himoya qilinishini tushuntiradi.

Ilovadan foydalanish orqali ushbu siyosatni qabul qilgan hisoblanasiz.

## 2. Biz yig'adigan shaxsiy ma'lumotlar

Ro'yxatdan o'tish va Ilovadan foydalanish jarayonida quyidagi ma'lumotlar yig'iladi:

- Telefon raqami (+998 formatida) – faqat SMS-kod orqali hisobni tasdiqlash uchun.
- Username (noyob foydalanuvchi nomi) – chat orqali boshqalar bilan bog'lanish uchun.
- Tug'ilgan yil – majburiy, vakansiyada ochiq ko'rinadi.
- Millat – majburiy, vakansiyada ochiq ko'rinadi.
- Davlat va viloyat – majburiy, vakansiyada ochiq ko'rinadi.
- Parol – xavfsiz (hash) shaklda saqlanadi.
- Qurilma ma'lumotlari (OS versiyasi, model, IP-manzil) – faqat texnik va xavfsizlik maqsadida.
- To'lov tranzaksiya ma'lumotlari – Click va Payme orqali faqat tranzaksiya ID'lari qayd etiladi.
- Ilova ichidagi harakatlar (loglar) – statistika va xavfsizlik uchun.

Muhim: Vakansiyada ko'rsatiladigan ma'lumotlar (tug'ilgan yil, millat, davlat/viloyat, username) boshqa foydalanuvchilarga ochiq bo'ladi. Bu ma'lumotlar Ilovaning asosiy maqsadi – o'zaro mos juft topish uchun zarurdir va foydalanuvchilar ularni ro'yxatdan o'tish vaqtida kiritishga majburdir.

Chat ichidagi xabarlar (matn, rasm va boshqa kontent) Ilova tomonidan saqlanmaydi va nazorat qilinmaydi. Chatdagi barcha mazmun foydalanuvchilarning o'zaro kelishuvi bilan almashinadi. Platforma chat mazmuni uchun javobgar emas.

## 3. Ma'lumotlarni qanday yig'amiz?

- To'g'ridan-to'g'ri sizdan – ro'yxatdan o'tish, vakansiya yaratish va profil to'ldirishda.
- Avtomatik ravishda – Ilovadan foydalanish jarayonida (qurilma va log ma'lumotlari).
- Uchinchi xizmatlar orqali – to'lovlar uchun Click/Payme.

## 4. Ma'lumotlarni qanday maqsadda ishlatamiz?

- Hisobni ro'yxatdan o'tkazish va tasdiqlash (telefon raqami faqat shu maqsadda).
- Vakansiyalarni yaratish va boshqa foydalanuvchilarga ko'rsatish.
- Mos vakansiyalarni qidirish va ko'rsatish tizimini ta'minlash.
- Chat orqali muloqot imkonini berish.
- Vakansiyalarni Telegram kanaliga avtomatik joylashtirish (faqat vakansiya matni va username).
- To'lovlarni qabul qilish va balansni ko'rsatish.
- Shikoyatlarni ko'rib chiqish va nojo'ya harakatlarni oldini olish.

## 5. Ma'lumotlarni kimlar bilan baham ko'ramiz?

Shaxsiy ma'lumotlaringizni sotmaymiz va ijaraga bermaymiz. Faqat:

- To'lov provayderlari (Click, Payme) – tranzaksiya uchun.
- Texnik xizmat provayderlari (server, Firebase va h.k.) – Ilova ishlashi uchun.
- Qonun talabi bo'lsa – sud qarori yoki huquq-tartibot organlari so'rovi bilan.

## 6. To'lovlar haqida

- Vakansiya joylashtirish pullik xizmatdir.
- To'lovlar faqat Ilova ichida Click va Payme orqali amalga oshiriladi.
- To'langan pullar qaytarib berilmaydi.
- Profilingizda balans ko'rinib turadi.

## 7. Administrator va manager huquqlari

Administratorlar va managerlar:

- Barcha vakansiyalarni ko'rish va o'chirish huquqiga ega.
- Shikoyatlar asosida foydalanuvchilarni bloklash huquqiga ega.

## 8. Hisobni o'chirish va ma'lumotlar saqlanish muddati

"Delete Account" orqali hisob o'chirilsa:

- Hisob disabled bo'ladi.
- Vakansiyalar, profil ma'lumotlari va chatlar o'chiriladi.

Xavfsizlik va huquqiy maqsadlarda barcha ma'lumotlar (shu jumladan chat xabarlari) 90 kun saqlanib, keyin butunlay o'chiriladi.

## 9. Ma'lumotlar xavfsizligi

Shifrlash, xavfsiz serverlar va kirish nazorati qo'llaniladi. Parolingizni saqlang.

## 10. Sizning huquqlaringiz

O'zbekiston qonunlariga ko'ra:

- Ma'lumotlaringiz bilan tanishish
- Tuzatish yoki o'chirish talab qilish (hisob o'chirish orqali)

## 11. Bolalar maxfiyligi

Faqat 18 yoshdan katta foydalanuvchilar uchun.

## 12. Siyosat o'zgarishlari

Siyosat yangilansa, Ilovada e'lon qilinadi.

## 13. Bog'lanish

Ilova ichidagi “Shikoyat/Bog‘lanish” bo‘limi yoki [support@oilago.uz](mailto:support@oilago.uz) orqali.

Rahmat, oilago.uz jamoasi!